

“KESHBEK” SODIQLIK DASTURI QOIDALARI

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. “Keshbek” Sodiqlik dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur, Sodiqlik dasturi) “A-Pay” elektron pul tizimidan foydalanuvchi Mijozlarni rag‘batlantirish va mukofotlash maqsadida tashkil etilgan va tizim foydalanuvchilari faolligini oshirishga qaratilgan.
- 1.2. “Keshbek” Sodiqlik dasturining ushbu Qoidalar (keyingi o‘rinlarda — Qoidalar deb yuritiladi) elektron pullardan foydalangan holda to‘lovlar, pul o‘tkazmalar va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida “A-Pay” elektron pul tizimidan (keyingi o‘rinlarda Tizim deb yuritiladi) foydalanuvchi Mijozlar-jismoniy shaxslarning unda ishtirok etishining umumiy shartlari va tartibini belgilaydi.
- 1.3. Mijozlarning “Keshbek” Sodiqlik dasturiga kirishi “A-Pay” Elektron pul tizimi Operatori (keyingi o‘rinlarda — Operator, Tizim Operatori) “CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” AJning (yuridik manzili: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko‘chasi, 79 / STIR 306 344 019 / IFUT 58290) rasmiy ommaviy taklifi hisoblanmish ushbu Qoidalar ko‘rinishida taqdim etilgan Ommaviy ofertani qabul qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi talablariga muvofiq “Keshbek” Sodiqlik dasturida ishtirok etish to‘g‘risida Shartnoma tuziladi.
- 1.4. Operator ushbu Qoidalarining joriy versiyasini Internetdagi rasmiy veb-saytida: <https://www.a-pay.uz> va (yoki) mobil ilovada joylashtiradi va Mijozning Tizim Operatori va/yoki mobil ilova orqali ushbu Dasturga qo‘shilish imkoniyatini tashkil qiladi.
- 1.5. “Keshbek” Sodiqlik dasturi Operator tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida ushbu Qoidalar shartlari asosida amalga oshiriladi. Dasturda ishtirok etish ixtiyoriy va bepul.
- 1.6. Dastur muddatsiz bo‘lib, Operator tomonidan ushbu Qoidalarda belgilangan tartib va shartlarga muvofiq istalgan vaqtda tugatilishi mumkin. Ushbu Sodiqlik dasturini amalga oshirish shartlari Tizim Operatori tomonidan belgilanadi.
- 1.7. Aksept amalga oshirilganidan so‘ng, Operator va Mijoz Shartnoma tuzilgan kuni amal qilgan Qoidalar nashri asosida “Keshbek” Sodiqlik Dasturida ishtirok etish to‘g‘risida shartnoma tuzgan deb hisoblanadi. Mijoz ushbu Shartnoma shartlariga to‘liq roziligini bildiradi, ularni qabul qiladi va Dastur Ishtirokchisiga aylanadi. Ushbu Shartnoma Mijoz akseptni amalga oshirgan paytdan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi va yozma ravishda tuzilgan hujjatga tenglashtiriladi.
- 1.8. Taklifni qabul qilish Mijoz tomonidan quyidagi konklyudent harakatlarni bajarish orqali amalga oshiriladi:
1. “A-Pay” elektron pul tizimida ro‘yxatdan o‘tish; 2. Keshbek to‘lanishi nazarda tutilgan har qanday xarajatlar operatsiyasini o‘tkazish. Keshbek hajmi va Keshbeklar soniga cheklovlar ushbu Qoidalarining 1-ilovasida belgilangan.
- 1.9. Dastur lotereya emas va ommaviy tanlov hisoblanmaydi.
- 1.10. Ushbu Qoidalar Operator tomonidan hech qanday maxsus ogohlantirishsiz bir tomonlama ravishda o‘zgartirilishi va/yoki to‘ldirilishi mumkin. Qoidalar ochiq hujjatdir. Yangi shartlar e‘lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi, agar ularni joylashtirishda boshqa qoidalar ko‘rsatilmagan bo‘lsa. Qoidalarining joriy nashri rasmiy veb-saytda va Operator tomonidan belgilangan boshqa joylarda mavjud, Ishtirokchi uning mazmuni bilan tanishishiga imkon berilgan. Operator Ishtirokchilarga ushbu Qoidalar shartlarini va kiritilgan o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar borligini muntazam ravishda tekshirib turishni tavsiya qiladi. Ushbu Qoidalariga o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalar kiritilgandan so‘ng Sodiqlik dasturida ishtirok etishni davom ettirish a‘zoning bunday o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalarni qabul qilinishi va ularga rozilik bildirishini anglatadi.
- 1.11. Dasturda ishtirok etishni boshlashdan oldin Mijoz ushbu Qoidalar, shuningdek Operatorning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan barcha amaldagi Qoidalar va boshqa hujjatlar bilan tanishishi shart. Dasturda ishtirok etish va Qoidalar shartlariga muvofiq konklyudent harakatlarni amalga oshirish, Mijozning ushbu Qoidalarining shartlari va Qoidalarini Sodiqlik dasturiga qo‘shilish shartlarida hech qanday cheklovlarsiz to‘liq va so‘zsiz qabul qilish va ularga rioya qilishni anglatadi.

2. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

- 2.1. “Keshbek” Sodiqlik dasturi — Operator tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiriladigan, “A-Pay” elektron pul tizimida Mijozlarning faolligini shakllantirish va oshirishga yo‘naltirilgan, Qoidalarda belgilangan asoslar bo‘yicha Ishtirokchilarga Keshbekni hisoblashni nazarda tutuvchi Sodiqlik dasturi.

- 2.2. Qoidalar — <https://www.a-pay.uz> manzilidagi internet tarmog'ida va (yoki) Keshbekni hisoblash tartibini belgilaydigan mobil ilovada joylashtirilgan ommaviy oferta sanalmish mazkur hujjat.
- 2.3. Keshbek — Operator tomonidan taklif etiladigan, Mijoz tomonidan sarflangan elektron pulni qisman qaytarishda ifodalangan, "A-Pay" Elektron pul tizimi Operatori tomonidan ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda xarajatlar operatsiyasining foizi shaklida hisoblab chiqiladigan va mijozlarning Keshbek hisobiga jo'natiladigan maxsus shart.
- 2.4. Dastur Ishtirokchisi (Ishtirokchi) — "A-Pay" elektron pul tizimida ro'yxatdan o'tgan, belgilangan tartibda elektron hamyonga kirish huquqiga ega bo'lgan va Qoidalarda ko'rsatilgan shartlar asosida Dasturda qatnashadigan tizim Mijozi bo'lgan jismoniy shaxs.
- 2.5. Keshbek hisobi — Operator tomonidan Keshbekni hisobga olish uchun Dastur Ishtirokchisiga ochiladigan elektron hamyon.
- 2.6. Xarajatlar operatsiyasi — "A-Pay" elektron pul tizimida elektron pullardan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiya, buning uchun Qoidalar asosida Keshbek hisoblashni nazarda tutilgan, mustasno holatlar:
- Operator tomonidan shubhali deb topilgan operatsiyalar (ya'ni Ishtirokchiga berilgan huquqlarni suiiste'mol qilishga qaratilgan harakatlar);
 - Operatorga fikriga ko'ra g'ayrioddiy operatsiyalar belgilarini o'z ichiga olgan operatsiyalar;
- 2.7. Sodiqlik dasturini suiiste'mol qilish — Dastur Qoidalariga zid bo'lgan, shaxsiy iste'mol maqsadida tovarlar, xizmatlarni haqiqiy sotib olmasdan Keshbek olish, yoki noqonuniy ravishda olingan mablag'lar hisobidan operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan xaridni amalga oshirish, yoki amalga oshirilgan operatsiyalar yoki Dastur doirasida Ishtirokchiga berilgan imtiyozlar to'g'risida noto'g'ri ma'lumot taqdim etish orqali amalga oshiriladigan Dastur Qoidalariga zid bo'lgan har qanday adolatsiz harakatlar, shuningdek boshqa adolatsiz harakatlar.
- 2.8. Hisobot davri — kalendar oyining birinchi kunidan kalendar oyining oxirgi kunigacha bo'lgan davr, bu davrda xarajatlar operatsiyalari amalga oshiriladi. Birinchi hisobot davri kalendar oyida Ishtirokchi "Keshbek" Sodiqlik dasturiga ulangan kundan boshlanadi.

3. DASTURDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI, KESHBEKNI HISOBLASH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBI.

- 3.1. Dasturda "A-Pay" Elektron pul tizimida ro'yxatdan o'tgan har qanday voyaga yetgan va muomalaga layoqatli O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ishtirok etishi mumkin. Tizimda ro'yxatdan o'tgandan so'ng, Dastur Ishtirokchisiga Keshbek-hisob ochiladi, unda hisoblangan va foydalanish uchun mavjud bo'lgan Keshbek summasi aks ettiriladi. Keshbek summasidan foydalanish uchun Dastur Ishtirokchisi Operator tomonidan belgilangan talablarga muvofiq identifikatsiyadan o'tishi va tizimning tasdiqlangan Mijozi maqomini olishi kerak. "Keshbek" Sodiqlik dasturining Ishtirokchisi Dasturda ishtirok etishning ushbu Qoidalariga to'liq rozilik bildiradi.
- 3.2. Sodiqlik dasturida ishtiroki uchun beriladigan Keshbek, yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki moddiy yordam uchun to'lov (mukofot) sifatida to'lanmaydi.
- 3.3. Keshbekni hisoblash va hisobga jo'natish uchun "A-Pay" Elektron pul tizimida amalga oshirilgan xarajatlar operatsiyalari, shuningdek ushbu Qoidalar talablariga javob beradigan boshqa harakatlar va/yoki hodisalar hisobga olinadi.
- 3.4. Keshbek summasi ushbu Qoidalarining ajralmas qismi bo'lgan 1-ilovaga muvofiq "A-Pay" elektron pul tizimida amalga oshirilgan xarajatlar operatsiyasining foizi sifatida hisoblanadi.
- 3.5. Ishtirokchi tomonidan Dasturni suiiste'mol qilish holatlarini aniqlasa yoki bu haqida Operator ma'lumot olsa, Keshbek berilmaydi.
- 3.6. Alohida aksiya shartlari Keshbekni hisoblashning alohida tartibini nazarda tutishi mumkin. Operator o'z xohishiga ko'ra Ishtirokchiga Operatorning boshqa Aksiyalarida ishtirok etadigan tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun to'lov uchun ushbu Dastur bo'yicha Keshbekni hisoblashni rad etishi mumkin.
- 3.7. Ishtirokchiga quyidagi hollarda Keshbekni hisoblash va undan foydalanish rad etilishi mumkin:
- 3.7.1. agar Ishtirokchi xaridni amalga oshirmagan bo'lsa yoki buni shaxsiy foydalanish uchun qilmagan bo'lsa;
- 3.7.2. Keshbeki hisoblangan va to'langan tovarlar qaytarilganda. Bunday Keshbek bekor qilinishi va Operatorning xohishiga ko'ra Keshbek-hisobdan chiqarilishi mumkin.
- 3.7.3. Dastur Ishtirokchisi tomonidan ushbu Qoidalarda belgilangan shartlar, muddatlar, tartib, majburiyatlar, cheklovlar, shuningdek antifrod tizimining maxsus algoritmlari bilan aniqlangan hollarda, boshqa Qoidabuzarliklar yuzaga kelgan taqdirda;
- 3.8. Operator hisobot davrida ham, boshqa hollarda ham Keshbekning umumiy miqdorini cheklashi mumkin.

3.9. Tizimning identifikatsiyadan o'tgan Mijozi bo'lgan Dastur Ishtirokchisi Keshbekdan o'z xohishiga ko'ra foydalanish huquqiga ega.

3.10. Keshbekni olish uchun Ishtirokchi "A-Pay" elektron pul tizimida faqat o'ziga va o'z manfaatlariga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishi shart, tizimdagi xarajatlar operatsiyalari Ishtirokchining shaxsiy operatsiyalari bo'lishi kerak. Ishtirokchiga boshqalarning manfaati uchun har qanday xarajatlar operatsiyasini o'tkazish taqiqlanadi. Operator tomonidan firibgarlik, aldash yoki Operator uchun har xil turdagi va darajadagi moddiy, ma'naviy va boshqa zararli oqibatlarga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa manipulyatsiyalar aniqlangan taqdirda, Ishtirokchining Keshbekni olishga qaratilgan Qoidalar shartlariga rioya qilmaydigan harakatlari aniqlanganda, ilgari hisoblangan va to'lab berilgan Keshbek Ishtirokchini oldindan ogohlantirmasdan bekor qilinadi yoki o'zgartiriladi.

3.11. Keshbekni olish va to'plash imkoni Dasturning har bir Ishtirokchisi uchun mavjud, Dastur Ishtirokchisi tomonidan Keshbekdan foydalanish faqat identifikatsiya jarayonidan o'tgandan va Operator tomonidan belgilangan talablarga muvofiq tizimda aniqlangan Mijoz maqomini olgandan keyingina mumkin.

3.12. Keshbek "A-Pay" Elektron pul tizimida ochilgan Dastur Ishtirokchisining Keshbek hisobiga o'tkaziladi. Keshbek hisobini Dastur Ishtirokchisining hisobidan yoki boshqa yo'l bilan to'ldirishga yo'l qo'yilmaydi.

3.13. Keshbek yordamida amalga oshirilgan xarajatlar operatsiyalarida Operator tomonidan mukofotni to'lab berish Tizimdan foydalanishda ko'zda tutilgan mukofotni to'lash talablariga mos keladi.

4.ISHTIROKCHINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Ishtirokchi:

4.1.1. Qoidalarining mazmunini mustaqil ravishda kuzatib borish va Operator tomonidan Operator veb-saytida va/yoki mobil ilovasida joylashtirilgan Qoidalarining amaldagi nashri bilan mustaqil ravishda muntazam tanishib borish. Ishtirokchini e'lon qilingan ma'lumotlar bilan tanishtirish vaqti, Ishtirokchilar uchun ma'lumot ochiqchasi ommaga taqdim etilgan payt hisoblanadi;

4.1.2. mustaqil ravishda (o'z mablag'lari hisobidan) Internetga kirishni to'lash va Dasturda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan boshqa xarajatlarni o'z zimmasiga olish, ushbu Dasturning beg'arazligi va unda ishtirok etishiga ta'sir qilmaydi;

4.1.3. Dasturda ishtirok etishning bir qismi sifatida Operatorga har qanday sababga ko'ra yolg'on, noto'g'ri, uydirma, soxta yoki ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etmaslik zarur;

4.1.4. har qanday noqonuniy yoki adolatsiz harakatlarni amalga oshirish uchun Dasturni amalga oshirishda Operator tomonidan ishlatiladigan Dasturiy ta'minotni nusxalash, qismlarga ajratish yoki boshqa yo'l bilan manba kodini olishga urinmaslik;

4.1.5. moddiy va boshqa foyda olish, zarar yetkazish, shu jumladan moddiy zarar yetkazish, shuningdek "A-Pay" Elektron pul tizimining ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan noqonuniy va ruxsatsiz harakatlarni (shu jumladan turli xil texnik usullardan foydalangan holda) bajarmaslik;

4.1.6. Keshbekni noto'g'ri qabul qilish holatlari to'g'risida Operatorga xabar berish va uning qaytarilishiga to'sqinlik qilmaslik;

4.1.7. Dasturni firibgarlikda yoki Operatorga zarar yetkazadigan boshqa maqsadlarda ishlatmaslik;

4.1.8. Operatorning iltimosiga binoan unga tegishli talab yuborilgan kundan boshlab 1 ish kunidan kechiktirmay Operator tomonidan so'ralgan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;

4.1.9. hisoblangan Keshbek miqdorini ishlatishdan oldin, Operator talablariga muvofiq tizimda identifikatsiya qilish jarayonidan o'tish va tizimning aniqlangan Mijozi maqomini olish.

4.2. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

4.2.1. ushbu Qoidalarining 1-ilovasida nazarda tutilgan xarajatlar operatsiyalarini amalga oshirishda Keshbek olish;

4.2.2. xarajatlar operatsiyasi amalga oshirilgandan keyin 5(besh) kalendar kun ichida hisoblangan Keshbek summasi bilan kelishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda Operatorga yozma ariza yuborish;

4.2.3. istalgan vaqtda Dasturdan voz kechish. Buning uchun Operatorga ishtirok etishni to'xtatish to'g'risida yozma xabarnoma yuborish zarur. Dasturda ishtirok etish Operator Ishtirokchidan bildirishnoma olgan paytdan boshlab to'xtatilgan deb hisoblanadi. Dasturda ishtirok etishni to'xtatish Dastur doirasida Ishtirokchi va Operatorning boshqa majburiyatlarini bekor qilishga olib keladi, Ishtirokchining Dasturda ishtirok etish davrida Qoidalarni buzish bilan bog'liq majburiyatlari bundan mustasno. Dasturda ishtirok etish to'xtatilgan paytdan

boshlab Keshbekni to'lash to'xtatiladi, qatnashishdan bosh tortish paytigacha to'lab berilgan va foydalanilmagan Keshbeklar bekor qilinadi;

4.3. Dasturga qo'shilgan Mijoz, Dastur doirasida olgan Keshbek uning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadi emasligini tasdiqlaydi;

4.4. Dastur Ishtirokchisi o'z akkaunti ustidan nazoratni saqlab qolish uchun javobgardir va har qanday uchinchi shaxslarning akkauntga kira olmasligini, shuningdek uchinchi shaxslar tomonidan Ishtirokchining hisobidagi harakatlarni amalga oshira olmasligini ta'minlaydi. Ro'yxatdan o'tgandan keyin akkauntida qilingan har qanday harakatlar Ishtirokchi tomonidan shaxsan amalga oshirilgan deb tan olinadi.

5. OPERATORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Operator quyidagi majburiyatlarni oladi:

5.1.1. Ishtirokchilarga Keshbekni, uni hisoblash shartlariga muvofiq, hisoblash va to'lash;

5.1.2. xarajatlar operatsiyasi amalga oshirilgandan keyin 5 (besh) kalendar kun ichida Ishtirokchidan texnik yoki boshqa sabablarga ko'ra hisoblanmagan Keshbekni hisoblash uchun ariza qabul qilish;

5.1.3. Qoidalarga, ilovalarga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, shuningdek Sodiqlik dasturini yopish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, tegishli ma'lumotlarni Operatorning rasmiy veb-saytida va\yoki mobil ilovada joylashtirish.

5.1.4. Agar Ishtirokchi Operator talablariga muvofiq Tizimda identifikatsiyadan o'tmagan bo'lsa va Tizimning tasdiqlangan Mijozni maqomini olmagan bo'lsa, Ishtirokchiga Keshbekdan foydalanishni rad etish.

5.2. Operator quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. Keshbekni to'lab berish shartlari va keshbek miqdorini mustaqil ravishda aniqlash;

5.2.2. Keshbekni to'lab berishda biron bir xatoga yo'l qo'yilgan taqdirda, texnik nosozlik, shuningdek Ishtirokchi tomonidan tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun haq to'lash bekor qilinganda va ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda to'g'irlash Ishtirokchiga to'langan yoki to'lanishi kerak bo'lgan Keshbek miqdorini to'g'irlash;

5.2.3. Ishtirokchi tomonidan Qoidalar shartlari bajarilishini tekshirish. Agar biron bir shubha bo'lsa, Ishtirokchidan tushuntirishni talab qilish. Bunday holda, Keshbekni to'lab berish muddati shubhalar bartaraf etilgunga qadar to'xtatilishi mumkin;

5.2.4. Dastur Ishtirokchisini xabardor qilmasdan va sabablarni o'z xohishiga ko'ra ko'rsatmasdan, shu jumladan (ammo mutlaqo emas) Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarining shartlari buzilgan taqdirda, va/yoki Qoidalar bo'yicha unga berilgan huquq va imkoniyatlar suiiste'mol qilinganda, va/yoki Dasturdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan operatsiyalarni bajarish uchun foydalanilganda, va/yoki Operatorga noto'g'ri va/yoki adashtiruvchi ma'lumotlar taqdim etilganda, shuningdek, boshqa holatlarda: Ishtirokchining Keshbek hisobini bloklab qo'yish va yoki Keshbek to'lab bermaslik, va/yoki ilgari to'lab berilgan Keshbekni bekor qilish, va/yoki Ishtirokchini Sodiqlik dasturida qatnashishdan chetlatish. Operator Ishtirokchi tomonidan Sodiqlik dasturida ishtirok etishda shubhali usullar, uslublardan foydalanayotgani, ushbu Qoidalarining shartlarini buzayotgani, yoki chetlab o'tayotgani, shuningdek Ishtirokchi tomonidan Dasturda ishtirok etishning halolligi va vijdoniyligiga ta'sir qiluvchi harakatlar amalga oshirayotganidan shubhalansa, ushbu bandda ko'zda tutilgan choralarni qo'llash huquqiga ega. Qoidani buzish, suiiste'mol qilish, Ishtirokchi Dasturda ishtirok etishining halolligini baholash mutlaqo Operatorning ixtiyori va uning vakolatidagi mavjud ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Ishtirokchining Dasturda ishtirok etishining vijdoniyligi, qoidabuzarliklar, suiiste'mol qilinish holatlarini baholash faqat Operatorning ixtiyorida va uning ixtiyorida bo'lgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi;

5.2.5. Dastur Ishtirokchisini xabardor qilmasdan va sabablarni ko'rsatmasdan, o'z ixtiyoriga ko'ra, Sodiqlik dasturida ishtirok etishni taqiqlashi, Ishtirokchining Keshbek hisobini bloklab qo'yishi, va/yoki Keshbek to'lab bermasligi, va/yoki Ishtirokchi, Operator va Ishtirokchining o'zi, shuningdek har qanday uchinchi tomon uchun turli xil va darajalardagi moddiy, axloqiy, obro'sizlantiruvchi va boshqa salbiy oqibatlarini keltirib chiqargan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan, Operator tomonidan firibgarlik, aldov yoki boshqa manipulyatsiyalar deb hisoblangan harakatlarni amalga oshirgan yoki sodir etish niyatida bo'lgan hollarida Sodiqlik dasturida ishtirok etishdan chetlatishi. Huquqlarni suiiste'mol qilish deganda, shu jumladan, Ishtirokchining Qoidalarga to'g'ri kelmaydigan va maksimal Keshbek olishga qaratilgan vijdotsiz harakatlari tushuniladi; Huquqlarni suiiste'mol qilish deb Ishtirokchining Qoidalarga mos kelmaydigan va maksimal Keshbekni olishga qaratilgan adolatsiz harakatlari ham tushuniladi;

5.2.6. shuningdek, xarajat operatsiyasi o'tkazilganligini tasdiqlovchi elektron hujjat mavjud bo'lmagan, xarajat operatsiyasi Ishtirokchi tomonidan amalga oshirilganiga shubha tug'ilgan, "Sodiqlik" dasturi Ishtirokchilariga va Tizim ishiga zarar yetkazishga qaratilgan turli xil texnik usullardan foydalangan holda amalga oshirilgan ruxsatsiz yoki vakolatsiz harakatlar kuzatilgan hollarda o'z ixtiyoriga ko'ra Ishtirokchiga Keshbekni to'lab berishdan bosh tortish, ilgari to'lab berilgan Keshbekni olib qo'yish (bekor qilish, nolga tushirish);

5.2.7. o'z ixtiyoriga ko'ra, Operatorning fikri bo'yicha Keshbek to'lab berish uchun asoslarni tekshirishga zarur bo'lgan har qanday ma'lumot va hujjatlarni Ishtirokchidan so'rash, shuningdek Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq boshqa maqsadlar uchun hamda Ishtirokchi so'ralgan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etgunga qadar Keshbek to'lab berilishini to'xtatib qo'yish. Agar Ishtirokchi talab qilingan axborot va hujjatlarni Qoidalarda nazarda tutilgan muddatda taqdim etmasa, Keshbekni to'lashda rad etish va\yoki ilgari to'langan Keshbeklarini bekor qilish;

5.2.8. agar Ishtirokchining operatsiyalari jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirish belgilari mavjudligi sababli Operator tomonidan shubhali deb topilgan bo'lsa va\yoki Operator yuqorida ko'rsatilgan belgilar mavjudligi sababli elektron hamyondan foydalanishni cheklagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining talablariga muvofiq sabablarni xabardor qilmasdan va tushuntirmasdan Sodiqlik dasturida ishtirok etishni taqiqlash;

5.2.9. agar biron bir Ishtirokchi ushbu Qoidalarga rioya qilmasa va\yoki Qoidalar, Aksiyalar Qoidalarini suiiste'mol qilsa va\yoki Operatorga noto'g'ri yoki yolg'on va xato ma'lumotlarni taqdim etsa, Ishtirokchining Dasturda ishtirok etishni ogohlantirishsiz to'xtatish;

5.2.10 Operator Ishtirokchining vafot etganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yoki uni bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topish to'g'risidagi ma'lumotlarni olgan taqdirda, Ishtirokchining Dasturda ishtirok etishini to'xtatish va Keshbeklarni bekor qilish. Bu Dastur doirasida Operatorning Ishtirokchi oldidagi majburiyatlarini bekor qilishga olib keladi;

5.2.11 Keshbekni to'lash bilan bog'liq bahsli vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Ishtirokchi tomonidan yozma arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish;

5.2.12. Qoidalarga, shu jumladan, Ilovaga ham o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish (shu jumladan yangi nashrlarni o'rnatish). Sodiqlik dasturi Ishtirokchilarini xabardor qilish Operator tomonidan Operator veb-saytida va\yoki mobil ilovasida Qoidalarining o'zgarishi to'g'risida tegishli ma'lumotlarni e'lon qilish va\yoki boshqa yo'l bilan Ishtirokchiga ma'lumotni olish va ma'lumot Operator tomonidan berilganligini ko'rsatgan holda amalga oshiriladi. O'zgartirishlar, qo'shimchalar e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi, agar nashr etish paytida boshqacha Qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

5.2.13. Sodiqlik dasturini istalgan vaqtda bir tomonlama ravishda to'xtatib turish yoki to'xtatish, Dastur Ishtirokchilariga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish Operator veb-saytida va\yoki mobil ilovasida e'lon qilish orqali yoki boshqa yo'l bilan Ishtirokchiga ma'lumot olish va ma'lumot Operator tomonidan berilganligini ko'rsatgan holda amalga oshiriladi. Sodiqlik dasturi, agar boshqacha Qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab yopiq hisoblanadi. Operator Ishtirokchilarga Sodiqlik dasturi vaqtinchalik to'xtatilgan yoki tugatilgan paytda Keshbek-hisobida qolgan keshbek qoldig'ini qoplamaydi. Ishtirokchi Operatoridan har qanday Keshbekni, shu jumladan elektron yoki pul ko'rinishida qoplab berilishini talab qilishga haqli emas;

5.2.14. Sodiqlik dasturida ishtirok etish uchun sheriklarni jalb qilish va Aksiyalar o'tkazish, ular doirasida qo'shimcha Keshbek to'lash va boshqa imtiyozlar berish;

5.2.15. profilaktika ishlarini olib borish uchun Ishtirokchini oldindan ogohlantirmasdan Keshbek to'lash imkoniyatini vaqtincha to'xtatib turish;

5.2.16. Ishtirokchining roziligini olmasdan o'z majburiyatlarini bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish;

5.2.17. Qoidabuzarlik yuzaga kelganda, xatolik darajasiga qarab, o'z xohishiga ko'ra Ishtirokchini ogohlantirish;

5.2.18. Ishtirokchi bilan yozma muzokaralarga yoki boshqa aloqalarga kirmaslik, ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

5.3. Operator quyidagilarga javobgar emas:

5.3.1. Operator Operator servislari, Keshbek servislari va boshqalarning xatosiz va uzluksiz ishlashiga, Sodiqlik dasturi Ishtirokchisining umidlarini qondirishiga hech qanday kafolat bermaydi, ushbu Qoidalarda aniq ko'rsatilmagan boshqa kafolatlarni taqdim etmaydi;

5.3.2. Keshbek xizmatlaridan foydalanish yoki foydalana olmaslikning bevosita yoki bilvosita oqibatlarini va\yoki Keshbek xizmatlaridan foydalanish, foydalanmaslik yoki foydalana olmaslik natijasida Ishtirokchi va\yoki

uchinchi shaxslarga, ularning alohida komponentlari va/yoki funksiyalari, shu jumladan dasturiy ta'minot va apparat vositalarining ishlashidagi mumkin bo'lgan xatolar yoki nosozliklar tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgar emas;

5.3.3. Tizimdan foydalanish yoki Sodiqlik dasturi, Aksiyalarda ishtirok etish bilan bog'liq holda Ishtirokchiga yetkazilgan har qanday moddiy va ma'naviy zararga;

5.3.4. "A-Pay" Elektron pul tizimida sabablaridan qat'i nazar yuz beradigan texnik nosozliklar va texnologik xatolarga. Operator tizimning uzluksiz ishlashiga, shu jumladan Keshbek to'lashning uzluksiz ishlashiga kafolat bermaydi;

5.3.5. uchinchi shaxslarning Ishtirokchining akkauntiga kirishi, unda uchinchi shaxslar tomonidan sodir etilgan har qanday harakatlar uchun;

5.3.6. Operatorning ushbu Qoidalarga muvofiq Keshbekni to'lashdan bosh tortishi uchun, shuningdek to'plangan Keshbekni chaqirib olish va / yoki bekor qilish hamda Ishtirokchining Dasturda ishtirok etishini to'xtatish, Dasturning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatishning har qanday oqibatlar uchun;

5.3.7. Dasturda ishtirok etgan holda, Dasturiy ta'minotning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan Ishtirokchining Qurilmasi o'zgargani oqibatlar uchun;

5.3.8. aloqa sifati, internetga ulanish, shuningdek Internet-provayderlarning ish sifati, Ishtirokchining uskunalar va/yoki Dasturiy ta'minotining ishlashi, shuningdek Operatoridan mustaqil bo'lgan boshqa holatlar, shuningdek ular bilan bog'liq barcha salbiy oqibatlar uchun;

5.3.9. Ishtirokchining Qoidalarining joriy versiyasiga nisbatan xabardor emasligi bilan bog'liq mumkin bo'lgan zararlari;

5.4. Operator Qoidalarini buzganlik uchun Ishtirokchi oldidagi javobgarligi, agar Keshbekni hisoblash bilan bog'liq har qanday da'vo bo'lsa — Ishtirokchining hisobiga tegishli miqdordagi Keshbekni to'lab berish bilan cheklanadi.

5.5. Ishtirokchi Qoidalarini buzgan taqdirda Operatorning harakatsizligi Operatorni keyinchalik o'z manfaatlarini himoya qilish uchun tegishli choralar ko'rish huquqidan mahrum qilmaydi, shuningdek Operator bunday Qoidabuzarlikka nisbatan o'z huquqlaridan voz kechishni anglatmaydi, shuningdek keyinchalik bunday yoki shunga o'xshash Qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda.

5.6. Operator Sodiqlik dasturida ishtirok etish doirasida Ishtirokchi tomonidan sotib olingan tovarlar, ishlar, xizmatlarni ishlab chiqaruvchi, sotuvchi emas, shuningdek ularni sotib olish jarayonida ishtirok etmaydi. Tovarlarni, ishlar, xizmatlarni sotib olish bilan bog'liq munosabatlar faqat ta'minotchi va jismoniy shaxs o'rtasida yuzaga keladi. Operator ta'minotchi va jismoniy shaxs o'rtasidagi munosabatlarning har qanday jihatlari uchun javobgar bo'lmaydi, shu jumladan sotib olingan tovarlar, ishlar, xizmatlar sifati uchun javobgar bo'lmaydi.

5.7. Operator ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun har qanday javobgarlikdan ozod qilinadi, agar fors-major holatlari (tabiat hodisalari, harbiy harakatlar, davlat organlari tomonidan normativ hujjatlarni qabul qilish va boshqalar) tufayli tegishli ijro etish imkonsiz bo'lib chiqsa, Operator tomonidan Shartnoma Ishtirokchisi bilan tuzilgandan keyin yuzaga kelgan, undan qochish yoki uni yengib o'tish nazoratdan tashqarida va Operatorning ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlarni bajarishiga to'sqinlik qilsa.

6.NIZOLARNI HAL QILISH

6.1. Ishtirokchining hisoblangan Keshbekga e'tirozlari bo'lgan taqdirda Ishtirokchi Keshbek hisoblanishi amalga oshirilmagan aksiya tranzaksiyasi, operatsiyalar bo'lib o'tgan vaqtdan boshlab 5 (besh) kalendar kuni davomida tegishli arizani yozma shaklda Operator manziliga jo'natishga haqlidir. Agar ko'rsatilgan muddat ichida Operator hisoblangan Keshbekga e'tirozlar olmasa, bonuslar qoldig'i tasdiqlangan hisoblanadi va keyinchalik Ishtirokchining da'volari ko'rib chiqilmaydi va qanoatlantirilmaydi.

6.2. Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq masalalarni hal qilish uchun Ishtirokchi aloqa markaziga murojaat qilish huquqiga ega.

6.3. Operator va Ishtirokchi o'rtasidagi "Keshbek" Dasturi Qoidalari bo'yicha barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Agar nizolar va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan 30 (o'ttiz) kun ichida hal qilishning iloji bo'lmasa, nizo Operator joylashgan joydagi sud organlariga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

7.SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHGA VA REKLAMA, AXBOROT XABARLARINI OLISHGA ROZILIK

7.1. Ishtirokchi quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga, shu jumladan, yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, (aniqlashtirish, yangilash, o'zgartirish), foydalanish, egasizlashtirish, blokirovka qilish, yo'q qilishga rozilik bersada, lekin quyidagi shaxsiy ma'lumotlar bilan cheklanmaydi: Dastur Ishtirokchisini aniqlash, reklama, axborot xabarlarini tarqatish (har qanday aloqa kanallari orqali, jumladan, pochta, SMS, elektron pochta, telefon, mobil ilova, boshqa aloqa vositalari orqali o'tkazilayotgan aksiyalar va maxsus takliflar) maqsadida familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, manzili, aloqa telefon raqami, elektron pochta manzili, Dasturdagi Ishtirokchini aniqlash, Keshbekni to'plash va undan foydalanishni hisobga olish tartibini ta'minlash maqsadida Sodiqlik dasturida Ishtirok etish munosabati bilan ishtirokchi tomonidan Operatorga taqdim etilgan boshqa ma'lumotlar Keshbek, yetkazib berish, Ishtirokchining manfaatlarini tahlil qilish, so'rovlar o'tkazish, tovarlar, ishlar, xizmatlar to'g'risida ma'lumot tarqatish, reklama, axborot xabarlarini tarqatish (shu jumladan har qanday aloqa kanallari orqali amalga oshiriladigan aksiyalar va maxsus takliflar, shu jumladan pochta, SMS, elektron pochta, telefon, mobil ilova, boshqa aloqa vositalari orqali), normativ va normativ bo'lmagan huquqiy hujjatlar, shuningdek davlat hokimiyati organlari va bunday organlar nomidan yoki nomidan ish yurituvchi shaxslarning qarorlari, topshiriqlari va so'rovlari ijrosini ta'minlash.

7.2. Ishtirokchi uning shaxsiy ma'lumotlari shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlariga mos keladigan usullar bilan, shu jumladan avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan qayta ishlanishiga rozilik bildiradi. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga to'liq javob berishiga va Operator tomonidan olinganligini tasdiqlashga imkon berishiga rozilik bildiradi.

7.3. Ishtirokchi Operator o'zining shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga, sheriklarga, shu jumladan transchegaraviy uzatish orqali (tizim Ishtirokchisi foydalanishi uchun, Dasturda ishtirok etishni ta'minlash, tovarlarni ro'yxatdan o'tkazish va yetkazib berish, shuningdek imtiyozlar olish, Ishtirokchiga xizmatlar ko'rsatish, huquqlarni himoya qilish imkoniyatini ta'minlash uchun va Shartnomalarni bajarish maqsadida Ishtirokchining qonuniy manfaatlari va boshqalar) o'tkazish huquqiga ega ekanligidan xabardor va rozilik beradi.

7.4. Rozilik Ishtirokchi tomonidan butun Dastur muddati davomida amal qiladi. Rozilikni bekor qilinish uchun Operator tomonidan ma'lumotlarni qayta ishlashni tugatish sanasidan kamida 30 kalendar kun oldin Ishtirokchi Operatorga yozma ariza yuborishi kerak. Shunda, Ishtirokchi tomonidan ushbu rozilikning bekor qilinishi uning Dasturdagi ishtirokini avtomatik ravishda to'xtatilishi va Ishtirokchi, agar u Tizim va Dasturdan yana foydalanishga qaror qilsa, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga qayta rozilik berishi kerakligi haqida Ishtirokchi ma'lumotga ega va bunga rozi. Agar Ishtirokchi shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligini qaytarib olsa, Operator "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan asoslar mavjud bo'lsa, subyekting rozilgisiz uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashni davom ettirishga haqli.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Dasturda ishtirok etish uchun to'lov amalga oshirilmaganligi sababli Ishtirokchi va Operator o'rtasidagi Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq munosabatlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qoidalar qo'llanilishi mumkin emas.

8.2. Operator "Keshbek" Sodiqlik dasturi Qoidalarga o'zgartirishlar kiritish (shu jumladan, yangi tahrirlarni belgilash), xususan, Qoidalarga llovalar kiritish huquqiga ega. Qoidalar va Marketing aksiyalari shartlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar ular e'lon qilingan kundan va/yoki Operator tomonidan belgilangan sanadan boshlab kuchga kiradi. Ko'rsatilgan ma'lumotlar Operatorning rasmiy veb-saytlari va/yoki mobil ilovalarida joylashtirish (nashr etish) orqali Dastur Ishtirokchilari e'tiboriga havola etiladi. Ishtirokchining e'lon qilingan ma'lumotlar bilan tanishish vaqti Ishtirokchi uchun ma'lumot mavjud bo'lgan vaqt hisoblanadi.

8.3. Operator Keshbekni to'lab berish limitlarini va muddatlarini va boshqa shartlarni o'z xohishiga ko'ra belgilaydi.

8.4. Ishtirokchi Operator tomonidan veb-saytda va/yoki mobil ilovada joylashtirilgan ma'lumotlar bilan mustaqil ravishda, shu jumladan, Qoidalarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida ma'lumot olish uchun Operatorga murojaat qilish orqali tanishishi shart.

8.5. Qoidalarga ular kuchga kirgan paytdan boshlab har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar Qoidalarga qo'shilgan bonus Dasturining barcha Ishtirokchilariga, shu jumladan, Qoidalarga o'zgartirishlar kuchga kirgunga qadar qo'shilganlarga nisbatan tatbiq etiladi.

8.6. Ishtirokchi Sodiqlik Dasturida ishtirok etishdan bosh tortmasligi, Ishtirokchining Qoidalarining yangi nashriga rozi ekanligini anglatadi. Operator tomonidan tasdiqlangan Qoidalariga rozi bo'lmagan taqdirda Ishtirokchi Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.

8.7. "Keshbek" Sodiqlik dasturida ishtirok etishni to'xtatish tartibi:

8.7.1. Ishtirokchining tashabbusi bilan-Ishtirokchiga Sodiqlik dasturidan uzilish uchun yozma ariza (qog'ozda) taqdim etish orqali;

8.7.2. Operatorning tashabbusi bilan — Ishtirokchi "A-Pay" Elektron pul tizimidagi elektron hamyonni yopganda yoki ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq.

8.8. Dasturda ishtirok etish to'xtatilgan hisobot davri uchun Keshbek hisoblanmaydi va to'lab berilmaydi.

8.9. Dasturda ishtirok etish, shu jumladan Keshbekni to'lash faqat O'zbekiston Respublikasi hududida va Dastur muddati doirasida amal qiladi. Ushbu Qoidalar Operator tomonidan saytda va\yoki mobil ilovada joylashtirilgan paytdan boshlab ular bekor qilingan paytgacha amal qiladi.

8.10. Sodiqlik dasturiga oid barcha savollar uchun Ishtirokchilar Operatorning Aloqa markaziga quyidagi telefon orqali murojaat qilishlari mumkin: +99855 500-11-10

8.11. Agar u yoki bu sabablarga ko'ra Qoidalarining bir yoki bir nechta tartiblari haqiqiy emas yoki yuridik kuchga ega emas, deb e'tirof etilishi Qoidaning qolgan tartiblari haqiqiylikiga yoki qo'llanilishiga ta'sir qilmaydi.

8.12. "A-Pay Keshbek" Sodiqlik dasturiga qo'shilish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalariga to'liq rozilik bildiradi.

KESHBEK HISOBLASH

Chiqim operatsiyasi	KESHBEK miqdori	Cheklovlar
Maishiy xizmatlar to'lovi (Elektr quvvati, Tabiiy gaz, XTJMB, Sovuq suv, Suyultirilgan gaz, Axlal chiqarish, Issiqlik energiyasi);	Keshbek to'lov summasining 1% gacha miqdorida hisoblanadi.	Keshbek faqat hisobot davri davomida dastlabki 5 ta (beshta) to'lov uchun hisoblanadi. Agar hisobot davri mobaynida to'lovlar miqdori 5 tadan oshsa, keyingi to'lovlar uchun hisobot davri so'ngiga qadar keshbek to'lab berilmaydi.
Davlat xizmatlari to'lovi (Yagona darcha xizmatlari, IIV FKCHB, UZIMEI, DPM (xorijiy pasport), fiskal modul, YHXDB jarimasi, E-IMZO.UZ, DSQ, IIV jarimalar to'lovi);	Keshbek to'lov summasining 1% gacha miqdorida hisoblanadi.	Keshbek faqat hisobot davri davomida dastlabki 5 ta (beshta) to'lov uchun hisoblanadi. Agar hisobot davri mobaynida to'lovlar miqdori 5 tadan oshsa, keyingi to'lovlar uchun hisobot davri so'ngiga qadar keshbek to'lab berilmaydi.
To'lov toifalari: uyali aloqa, internet va TV, transport, muddatli to'lovni so'ndirish, ta'lim, e'lonlar, sug'urta polislari, internet do'konlar;	Keshbek to'lov summasining 3% gacha miqdorida hisoblanadi.	Keshbek faqat hisobot davri davomida dastlabki 10 ta (o'nta) to'lov uchun hisoblanadi. Agar hisobot davri mobaynida to'lovlar miqdori 10 tadan oshsa, keyingi to'lovlar uchun hisobot davri so'ngiga qadar keshbek to'lab berilmaydi.
"A-Pay" tizimi va "A-Pay" kartalari yordamida joylarda to'lov qilish;	Keshbek to'lov summasining 2% gacha miqdorida hisoblanadi.	Cheklovsiz
to'lov toifalari: aviachiptalar xarid qilish, "biznes" abonent to'lovi;	Keshbek to'lov summasining 2% gacha miqdorida hisoblanadi.	Keshbek faqat hisobot davri davomida dastlabki 5 (besh) to'lov uchun hisoblanadi. Agar hisobot davri mobaynida to'lovlar miqdori 5 tadan oshsa, keyingi to'lovlar uchun hisobot davri so'ngiga qadar keshbek to'lab berilmaydi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, Maxtumduli ko'chasi, 81

STIR: 306 344 019

h/r: 2020 8000 0050 6594 4001

"HAMKORBANK" ATB

FAA: 00083(11468)

IFUT: 58290